



KO'CHIRMA GAPLAR VA ULARNING YOZUVDAGI IFODASI

Shodiyeva Diyora A'zam qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 3-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ko'chirma gaplarni o'zlashtirish va tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olishga doir topshiriqlar, ularning tahlili va o'quvchilar uchun metodlar kiritilgan. Undan tashqari muallif gapi va o'zlashtirma gaplar haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Bunda o'quvchilarda ko'chirma gapni ajrata olish va tinish belgilarini o'z o'rnida qo'llay olish ko'nikmasi rivojlanadi.*

Abstract: *This article includes tasks for mastering abstract sentences and using punctuation marks correctly, their analysis, and methods for students. In addition, brief information about the author's speech and abstract sentences is provided. In this way, students develop the ability to distinguish abstract sentences and use punctuation marks in their place.*

Kalit so'zlar: *ko'chirma gap, muallif gapi, o'zlashtirma gap, tinish belgilari, dialog, monolog.*

Keywords: *abstract sentence, author's speech, abstract sentence, punctuation marks, dialogue, monologue.*

Ko'chirma gaplar nafaqat o'quvchilar uchun balki katta yoshli o'smirlar uchun ham kerakli mavzu hisoblanadi. U til o'rganish va muloqot jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'chirma gap qolipidan foydalanib kimningdir fikrini kimgadir tushunarli va o'z shaklida yetkazishda aynan qo'l keladi. Ko'chirma gaplar odatda badiiy asar, hikoya, drama, kino ssenariylari, dialog, monologlarda ko'p qo'llaniladi.



Ko‘chirma gaplardan og‘zaki nutqda foydalanish, so‘zlanayotgan so‘zni yanada jonlantiradi va qiziqarli talaffuz qilinishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, kimningdir fikrini xuddi o‘zidek keltirish – u insonga nisbatan hurmat va madaniyatli muomalani yuzaga keltirishga sabab bo‘ladi. Undan tashqari ilmiy va huquqiy ishlarda ham keng foydalaniladi. Masalan, ko‘chirma gaplar ilmiy maqolalarda, davlat hujjatlarida yoki sud ishida (guvohlik berish jarayonida: boshqalarning fikriga isbot sifatida) va h.k.

Aynan ko‘chirma gaplar yuzasidan olimlar ko‘plab tadqiqotlar olib borishgan. Ulardan Boqijon To‘xliyev “O‘zgalar nutqini ifodalash usullari” mavzusida ko‘chirma gaplar va tinish belgilarining qo‘llanilishiga oid bir qancha misollar va qoidalar keltiradi. Undan tashqari o‘zlashtirma gap va muallif gaplarga qisqa to‘xtalib o‘tadi. Bunda ko‘chirma gapda o‘zgalarning gapi hech qanday o‘zgarishsiz berilishini, ko‘chirma gap tarkibi ko‘chirilgan va muallif gaplaridan iborat bo‘lib, dedi, aytdi, deb so‘radi, deb javob berdi, gapirdi, so‘zlari kabi fe‘llar bilan muallif gapining kesimi ifodalanishini, o‘zlashtirma gap ko‘chirma gapga – ligimni, -ligini(aytdi...) kabi qo‘shimchalarni qo‘shish orqali hosil qilinishini aytgan va ko‘plab qoida va misollar keltirib o‘tgan¹.

Ko‘chirma gapni o‘quvchilarga oson tushuntirishda hayotiy qoida va hayotiy misollardan foydalansak yanada tushunarli bo‘ladi: ko‘chirma gap kimningdir aytgan gapini xuddi o‘zidek yozish yoki takrorlash hisoblanadi. Masalan:

“Darslaringni tayyorla”—dedi onam.

¹ B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.



Boqijon To‘xliyev “Ona tili o‘qitish metodikasi” kitobida ko‘chirma gap tarkibidagi tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llashga oid turli xil qoliplarni keltirib o‘tadi²:

1. Muallif gapi o‘rtada kelganda, ikki tomondan vergul va tire (,—)bilan ajratiladi: “Bolam,—dedi bobom, — telefondan ko‘p foydalanish zarar”.

“K.gap,—m.g,—k.g”

2. Ko‘chirilgan gap tarkibida tugallangan gap soni ikkita bo‘lsa, birinchi muallif gapidan so‘ng vergul va tire, ko‘chirma gap oxrida keyingi nuqta qo‘yilib qo‘shirnoq yopiladi: “nonushta tayyor,—dedi opam,—ovqatlanib ol.”

“K.gap,—m.g,—k.g.”

3. Ko‘chirilgan gap so‘roq yoki his-hayajonli bo‘lsa muallif gapidan avval so‘roq yoki undov belgisi va tire, muallif gapidan keyin nuqta va tire qo‘yilib, ko‘chirma gap bosh harf bilan davom etiladi: “Bugun maktabdan erta qaytasanmi?— so‘radi bola. —Birga o‘ynardik.”

4. Agar ko‘chirma gap o‘rtada kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta, so‘ng qo‘shirnoq ochiladi, ko‘chirma gapdan keyin vergul, tire yoki tegishli belgi qo‘yiladi va muallif gapi davom etadi: Onam: “Men aytgan ishlarni bajardingmi?”—deb so‘radi.

5. Agar ko‘chirma gaplar dialog shaklida berilsa, ular oldidan tire qo‘yiladi va bu holatda muallif gapi ishtirok etmaydi:

—Qayerdasiz?

—Xonaga keldim.

² B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006.



—Yaqinda bordingizmi?

—Yo ‘q, kelganimga ancha bo ‘ldi.

Bu mavzu maktab darsliklarida ham kiritilgan. Ular yuqorida ko‘rsatilgan qolipga asoslanib o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Masalan, 5-sinf “Ona tili” kitobining “Qo‘shirnoqning ishlatilishi” mavzusida ko‘chirma gap qo‘shirnoq ichida berilishi aytib o‘tilgan³. 6-sinf “Ona tili” kitobida esa ko‘chirma gap hamda muallif gaplar haqida aniq ma’lumot berilgan va qoliplari tushunarli tarzda ko‘rsatilgan. Undan tashqari mavzu bo‘yicha bir necha topshiriqlar ham berib o‘tilgan⁴. Berilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilar qolipdan foydalana olish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. 10-sinf “Ona tili” darsligining “Matnni kengaytirish” mavzusida esa ko‘chirma gaplarni muallif gaplarga aylantirish vazifasi berilgan bo‘lib, unda o‘quvchilar olgan bilimlarini mustahkamlashadi va tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘llay olish malakasini oshiradilar⁵. Undan tashqari ular to‘g‘ri va ravon o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi.

Tinish belgilarining o‘z o‘rniga to‘g‘ri qo‘llay olish o‘quvchilarning yozma nutqini boyitadi va o‘z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashga yordam beradi.

Bu mavzuni yanada mustahkamlash uchun mavzu yuzasidan darsda turli xil metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, “To‘g‘ri joylashtir” metodi. O‘quvchilardan bu metodni guruhlariga bo‘linib bajarishlari so‘raladi. 3 yoki 4

³ Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Z. Xolmonova, N. Mahmudov, A. Sobirov, Sh. Sattorov, Sh. Toshmirzayeva, D. Mannopova T. 2020 182-bet.

⁴ Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov T. 2022

⁵ Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Baxtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahim, Klaraxon Mavlonova, Mansur Siddiqov, Saodat Atoeva T. 2022 183-bet.



kishidan iborat kichik guruh tuziladi va ularga aralashtirib yozilgan gap qismlari taqdim etiladi. O‘quvchilar ularni to‘g‘ri tartibga keltirishlari va ko‘chirma gap shakliga keltirishlari va tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘yishlari kerak bo‘ladi. Masalan:

1. Dedi, ovqatingni yeb ol, akamga, dadam.
2. Menga, bugun Muqaddas shaharga ketadi, dugonam, dedi.
3. Ehtiyot bo‘l, deb baqirdi, menga, do‘stim.
4. Dedi, o‘qituvchi, vazifalarni vaqtida tayyorlanglar, o‘quvchilarga.

Bu vazifani o‘quvchilar quyidagicha bajarishlari kerak:

- 1) Dadam: “Ovqatingni yeb ol,”—dedi akamga.
- 2) Menga: “Bugun Muqaddas shaharga ketadi,”—dedi dugonam.
- 3) Do‘stim menga: “Ehtiyot bo‘l!”—deb baqirdi.
- 4) O‘qituvchi: “Vazifalarni vaqtida tayyorlanglar,”—dedi o‘quvchilarga.

O‘quvchilar uchun qiziq bo‘lgan yana bir metod — “Gapni to‘ldir” metodi. Bu metodni o‘quvchilar amaliy bajarishadi, u o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi. Bunda o‘quvchilarga ko‘chirma gaplarning “dedi”, “aytdi” shakli va to‘g‘ri qo‘llanilgan tinish belgilari beriladi. Gapning davomini o‘quvchilar o‘zlari fikrlab, tinish belgilariga mos tarzda davom etishlari kerak bo‘ladi.

1. “_____!”— dedi Zohid.
2. _____: “_____,”—deb aytdi.
3. “_____?”— dedi o‘qituvchim.



Demak: ko'chirma gaplar—kimningdir fikrini o'z holicha keltirish usuli hisoblanadi. O'quvchilar ko'chirma gaplar yordamida fikr kimga tegishli ekanini, tinish belgilaridan to'g'ri foydalanishni o'rganadilar. Undan tashqari bu mavzuni o'rganish nafaqat grammatik bilimni boyitadi, balki o'quvchining fikrini asosli, madaniyatli va aniq ifodalashga xizmat qiladi. Shuning uchun ko'chirma gaplarni yaxshi o'zlashtirish har bir o'quvchi uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.To 'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O 'zbek tili o 'qitish metodikasi. O 'quv qo 'llanma. O 'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg 'armasi nashriyoti,T.: 2006. 192 b.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Z. Xolmonova, N. Mahmudov, A. Sobirov, Sh. Sattorov, Sh. Toshmirzayeva, D. Mannopova T. 2020
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov T. 2022
4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Baxtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahim, Klaraxon Mavlonova, Mansur Siddiqov, Saodat Atoyeva T. 2022